

## **Ilmiy maqola va tezislarni qabul qilish bo‘yicha talablar:**

### **1) Ilmiy maqolaning tarkibi quyidagilardan iborat bo‘lishi shart:**

- 1.1. Tadqiqotning dolzarbligi, mavzu doirasida mavjud muammolar.
- 1.2. Muammoni hal qilish yo‘llari.
- 1.3. Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar.
- 1.4. Kutilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy samara.

### **2) Ilmiy maqola va tezislar jiddiy tahrir qilingan va rasmiylashtirishning barcha texnik talablariga muvofiq bo‘lishi zarur, jumladan:**

- matn muharriri – MS Word formatida yozilishi;
- sahifa – A4 o‘lchovida, kitob ko‘rinishida, barcha tomonlardan 20 mm qoldirilishi;
- shrift – Times New Roman, o‘lchovi (kegl) – 14;
- qator oralig‘i va xat boshidagi oraliq – 1,5;
- annotatsiya (Abstract) 250-300 so’z atrofida va tayanch iboralar (Keywords) 5-8 ta iboradan oshmasligi hamda uchta tilda (o‘zbek, ingliz, rus tillarida) bo‘lishi;
- ilmiy maqola va tezisning hajmi minimum 5 bet va maksimum 8 betdan oshmasligi, betlar raqamlanmasligi;
- ilmiy maqola oldin chop etilmagan, konferensiya yo‘nalishlariga oid dolzarb mavzularni qamrab olgan bo‘lishi;
- muallifning to‘liq familiyasi, ismi va sharifi, ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi, ilmiy muassasa va tashkilot nomi yuqori o‘ng burchakda, ilmiy maqola nomi esa o‘rtada (qalin harflar bilan) yozilishi;
- mualliflar sonining uch nafardan oshmasligi;
- maqola matnida kirish (dolzarbligi), ilmiy izlanishlar va uslublar, tadqiqot natijalari va uning muhokamasi, xulosa va adabiyotlar ro‘yxati bo‘lishi;
- barcha jadval, sxema va rasmlar MS Word formatida, Times New Roman shriftida, ularning nomi sxema va rasmlar pastida, jadvallarning nomlanishi esa tepasida yozilishi;
- barcha grafik, diagrammalar MS Excel formatida bo‘lishi;
- jadval, rasm va grafiklarda manbalar va matnda ularga havolalar ko‘rsatilgan bo‘lishi;
- foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References) APA tizimida rasmiylashtirilishi; (<https://apastyle.apa.org/>)
- havolalar har bir betning pastki qismida joylashtirilishi kerak.

**Ilmiy maqola va tezislar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.**

Bir muallif (hammualif)dan ikki nusxadan ortiq maqola qabul qilinmaydi.

**3)** Ilmiy maqola va tezislar anketani to‘ldirilgan holda **faqatgina elektron** shaklda farkhod-sciencedept@univ-silkroad.uz elektron pochta manziliga **2020 yilning 15 dekabr kuniga qadar** yuborilishi zarur.

**4)** Yuborilgan ilmiy maqola va tezislar yuqorida keltirilgan talablarga mosligi bo‘yicha ekspertizadan o‘tkaziladi va shuningdek, antiplagiat dasturi asosida tekshiruvdan o‘tkaziladi. Ekspertlarning xulosasiga ko‘ra noloyiq deb topilgan materiallar chop etilmaydi va muallifga qaytarib berilmaydi. Ijobiy deb topilgan ilmiy maqola va tezislar nashr uchun elektron to‘plamga kiritiladi va <https://www.univ-silkroad.uz/uz/> rasmiy vebsaytiga joylashtiriladi. Ijobiy maqola mualliflariga va anjumanda onlayn bevosita ishtirot etib ma’ruza yoki prezentatsiya bilan ishtirot etganlarga sertifiakat ularning electron pochta manzillariga yuboriladi.

Maqola matnida keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligiga muallif shaxsan javobgar hisoblanadi.